



«TASDIQLAYMAN»
Xorazm viloyati statistika
boshqarmasi boshlig'i
A. O'tamuratov

«05» yanvar 2024- yil

**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi axborot xizmati bosh mutaxassisi Nazokat Samandarovaning 2024- yil uchun
ISH REJASI**

№	Bajariladigan ishlar mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarilish muddati	Bajarilishi uchun mas'ul
1.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 27- iyuldagi PQ-4366- sonli «Ommaviy axborot vositalarining mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish to'g'risida» gi Qarorida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, viloyat statistika boshqarmasi Axborot xizmati faoliyatini tashkil qilish.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 27- iyuldagi PQ 4366- sonli qarori bilan axborot xizmati xodimlariga qo'yilgan talablardan kelib chiqib OAVlarida chiqish orqali hududiy boshqarma imidji shakllantiriladi	Doimiy	N.Samandarova
2.	Davlat statistika Dasturida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash va viloyat statistika boshqarmasi rahbariyatining axborot siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish.	Statistik ma'lumotlarni barcha turdagi OAVlari (bosma va elektron gazeta, radio, televideniye, ijtimoiy tarmoqlar) da yoritilishi tashkil qilinadi	doimiy	N.Samandarova
3.	Hududiy boshqarma veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarda boshqarma faoliyatiga daxldor hamda tarmoq bo'limlari tomonidan taqdim qilingan	Har kuni veb-saytga turli sohalarga taalluqli statistik tahliliy ma'lumotlar (press-revizlar va byulletenlar asosida), boshqarma yangiliklari joylab	doimiy	N.Samandarova, dasturiy ta'minot bo'limi, tuman (shahar) bo'limlari

	axborot va yangiliklarni maqola, xabar, info va videografika, rolik va tahliliy materiallar shaklida yoritib borish, veb-saytdagi axborot resurslarini tashkil etish, ularning samarali faoliyatini ta'minlash, internet tarmog'ida veb resurslarni shakllantirish va rivojlantirish	boriladi, tuman va shahar hokimliklarining rasmiy veb saytlariga, ijtimoiy tarmoqlarda iqtisodiy ma'lumotlar joylashtiriladi		
4.	Hududiy boshqarma faoliyatiga aloqador matnli, foto-audio va video materiallarning ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish.	Boshqarmaning rasmiy veb-saytida boshqarmaning mahalliy va respublika nashrlari, televideniya'dagi chiqishlari alohida sahifaga joylashtiriladi	Doimiy	N.Samandarova, dasturiy ta'minot bo'limi
5.	Mamlakat bo'ylab o'tkaziladigan aholini ro'yxatga olish ishlarini o'tkazishga tayyorgarlik jarayonlarini OAV larida yoritib borish.	Ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bo'limi bilan birgalikda televideniye va radioda alohida shu mavzuda chiqishlar tashkil qilinadi	Har chorakda bir marta	N.Samandarova, Ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bo'limi, tuman va shahar bo'limlari
6	Jamoatchilik bilan aloqalar o'rnatish, hududiy boshqarma faoliyatiga nisbatan jamoatchilik fikrining holati hamda OAVlarning pozitsiyasini tahlil qilish va ular to'g'risida boshqarma boshlig'iga axborot berish .	Ijtimoiy tarmoqlardagi statistika sohasiga taalluqli chiqishlarni kuzatish asosida	doimiy	N.Samandarova
7.	Hududiy boshqarma boshlig'i va rahbariyatining OAV vakillari bilan matbuot anjumanlari, ochiq muloqotlar, brifinglari, media tur, intervyulari va boshqa uchrashuvlarini tashkil qilish.	Reja bo'yicha matbuot anjumanlari tashkil qilinadi, televideniye va radioda chiqishlarni tashkil qilish	Har oyda bir marta	N.Samandarova
8.	Viloyat va respublikadagi ommaviy axborot vositalari, jurnalist va statistik ma'lumotlardan foydalanuvchilarning so'rovi asosida ularga yozma shaklda	Hududiy boshqarmaning tegishli tarmoq bo'limlari bilan birgalikda ma'lumotlar shakllantiriladi va taqdim qilinadi.	Doimiy	N.Samandarova

	statistik ma'lumotlarni taqdim qilish.			
9.	Hududiy boshqarma tarmoq bo'limlarining reja asosida tahliliy-hisobot materiallarini (press-relizlar) o'zbek tili imlo qoidalari asosida imloviy va mazmun jihatdan tekshirish hamda veb-saytga joylashtirish, ular asosida infografik roliklar tayyorlash va e'lon qilish.	Hududiy boshqarma tarmoq bo'limlarining oylik, choraklik va yillik press-relizlari tekshiriladi, kamchiliklari tuzatiladi va veb-saytga joylashtiriladi, infografik roliklar televideniye, sayt, feysbuk, telegramm kanallariga joylashtiriladi	Doimiy	N.Samandarova
10.	Tuman (shahar) statistika bo'limlarining tuman, shahar va viloyat ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda belgilangan reja asosida chiqishlarini nazorat qilish.	Har bir tuman (shahar) o'z hududi doirasida xokimliklar saytlariga kunlik iqtisodiy ma'lumotlarni joylashtirishi, har oyda kamida 1 marta gazeta, radio va televideniya chiqish qilishi nazorat qilinadi	Doimiy	N.Samandarova
11.	Hududiy boshqarma faoliyatini to'liq va xolisona yoritish maqsadida ommaviy-axborot vositalari, jurnalistlar va blogerlar bilan o'zaro hamkorlikni amalga oshirish	Matbuot anjumanlari tashkil qilinadi, ularning so'rovi asosida statistik ma'lumotlar taqdim qilinadi.	Doimiy	N.Samandarova
12.	Hududiy boshqarmada davlat tilida ish yuritish talablariga oid o'tkazilgan tadbirlar, O'zbek tili bayrami kuni munosabati bilan o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni ijtimoiy tarmoqlarda yoritish	Ushbu tadbirlar veb sayt, feysbuk, telegramm kanallar orqali yoritiladi	Doimiy	N.Samandarova
13.	Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligiga kunlik, haftalik, oylik va yillik hisobot kiritib borish.	Kunlik, haftalik, oylik va yillik faoliyatning monitoringini yuritish orqali belgilangan jadval asosidagi hisobotlar taqdim qilinadi	Doimiy	N.Samandarova

Tanishdim:



N.Samandarova



«TASDIQLAYMAN»
Xorazm viloyati teleradiokompaniyasi direktori
O. Matqurbanov
«21» 12 2024- yil



«TASDIQLAYMAN»
Xorazm viloyati statistika
boshqarmani boshlig'i
A.O'tamuratov
«23» 12 2024- yil

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi va Xorazm viloyat teleradiokompaniyasining statistik axborotlar sifati va oshkoraligini ta'minlash hamda uni tarqatish tizimini yanada takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni 2024- yil davomida televideniye va radio orqali yoritish bo'yicha hamkorlikdagi QO'SHMA ISH REJA

№	Teleradio-dasturlar nomi	Efirga uzatiladigan mavzular va amalga oshiriladigan ishlarning qisqacha mazmuni	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	
				Xorazm viloyati teleradiokompaniyasidan	Xorazm viloyati statistika boshqarmasidan
1.	Xorazm TV va radiosi	Informatsion teleradiodasturlarda. Davlat statistika organlari faoliyatining ustuvor yo'nalishlari, sohadagi qonun va qonunosti hujjatlarining shaffofligini ta'minlash, shuningdek, soha mutaxassislarini jalb etgan holda yangiliklar, teleradiolavhalar va reportajlar orqali Xorazm viloyati statistika boshqarmasi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni yoritib borish.	2024- yil davomida		A. O'tamuratov X.Egamov, U.Bardiyev, N.Samandarova, Boshqarma tarmoq bo'lim boshliqlari
2.	Xorazm TV va radiosi	Xorazm viloyati statistika boshqarmasi mutaxassislarini ekspert sifatida teleradiokanallarning statistik axborot faoliyatiga bevosita yoki bilvosita aloqador bo'lgan televizion dasturlariga, davra suhbatlari, tok-shoularga, intervyularga jalb etish.	2024- yil davomida		A. O'tamuratov, X.Egamov, U.Bardiyev, N.Samandarova, Boshqarma tarmoq bo'lim boshliqlari
3.	Xorazm TV va radiosi	Viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini aks ettiruvchi hamda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga oid dolzarb bo'lgan tahliliy ma'lumotlarni efirga uzatish, Xorazm viloyati statistika boshqarmasi tomonidan tayyorlab boriladigan sohalarga oid dolzarb bo'lgan tahliliy ma'lumotlarni zamonaviy usullardan, jumladan infografika, diagramma, vizual grafiklar va boshqa usullardan foydalangan holda efirga uzatib borish.	2024- yil davomida		A. O'tamuratov, X.Egamov, U.Bardiyev, N.Samandarova, Boshqarma tarmoq bo'lim boshliqlari

№	Teleradio-dasturlar nomi	Efirga uzatiladigan mavzular va amalga oshiriladigan ishlarning qisqacha mazmuni	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	
				Xorazm viloyati teleradiokompaniyasidan	Xorazm viloyati statistika boshqarmasidan
4.	Xorazm TV va radiosi	Kompaniyaning teleradiodasturlar tayyorlash bo'yicha so'roviga ko'ra zarur tahliliy ma'lumotlar, jumladan, dolzarb masalalarni qamrab olish va keng jamoatchilikni qiziqtirayotgan mavzularga oid statistik ma'lumotlar bilan ta'minlab borish.	2024- yil davomida		A. O'tamuratov, X.Egamov, U.Bardiyev, N.Samandarova, Boshqarma tarmoq bo'lim boshliqlari
5.	Xorazm TV yangiliklar dasturi	Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy statistik ko'rsatkichlariga doir qisqa ma'lumotlarni yangiliklar dasturi orqali qisqa satrlarda berib borish.	2024- yil davomida har haftada		A. O'tamuratov, X.Egamov, U.Bardiyev, N.Samandarova, Boshqarma tarmoq bo'lim boshliqlari
6.	Xorazm TV va radiosi	Aholini ro'yxatga olish ishlariga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha Xorazm viloyati statistika boshqarmasi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni yangiliklar hamda teleradiolavhalar va reportajlar orqali soha mutaxassislarini jalb etgan holda yoritib borish.	2024- yil davomida har oyda		A. O'tamuratov, X.Egamov, U.Bardiyev, N.Samandarova, Boshqarma tarmoq bo'lim boshliqlari
7	Xorazm TV va radiosi	Yillik Davlat statistika hisobotlarini sifatli va o'z vaqtida topshirilishiga oid e'lonlarni berib borish.	2024- yil davomida har oyda		N.Samandarova, Boshqarma tarmoq bo'lim boshliqlari

Izoh: 1. Ijodiy ishlab chiqarish jarayonidan kelib chiqib, mazkur rejaga Xorazm viloyati teleradiokompaniyasi va/yoki Xorazm viloyati statistika boshqarmasi tomonidan tegishli o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

2. Ishlab chiqarish zaruratidan kelib chiqib, mazkur rejada ko'rsatilmagan boshqa teleradiomahsulotlar ham tayyorlanishi mumkin.

3. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi tomonidan efirga uzatish uchun taqdim etiladigan shoshilinch va tahliliy ma'lumotlar hamda press-reliz va boshqa dolzarb bo'lgan mavzularga oid ma'lumotlar xususida Xorazm viloyat teleradiokompaniyasini kamida 10 kun avval xabardor qilib boradi.

4. Xorazm viloyat teleradiokompaniyasi Xorazm viloyati statistika boshqarmasi bilan efirga uzatiladigan ma'lumotlar, ularning shakli, hajmi, vaqti va ko'rinishi yuzasidan hamkorlikda ish olib boradi.

5. Efirga uzatish vaqti va efirga uzatiladigan teleko'rsatuvlar Xorazm viloyat teleradiokompaniyasi tomonidan belgilanadi.